

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOL OBRAZI

Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodiyoti, ayol obrazi talqini va uning ahamiyati, ibrati haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, badiiy vositalar, baholash, obrazlar, gallereya, nafs.

Navoiy lirkasida qayd etilgan mavzular nihoyatda keng va e’tiborli. Sho’ir lirkasida inson hayotida uchraydigan voqeа-hodisalar, kechinmalar, iztiroblar, tuyg‘ular haqqoniy ifodalangan. Alisher Navoiy she’riyatida mavzular ko‘lmdorligi, ularning mohirona tasvir vositalari boshqa ijodkorlarga qaraganda yuksak darajada teran bayon etilgan. Shu mavzulardan biri bu uning she’riyatida ayol obrazining talqinidir. Sho’irning buyuk va muhim xizmati shundan iboratki, u o‘zining ayol haqidagi ilg‘or fikr va orzularini boy va chuqur ta’sir etadigan badiiy vositalar orqali ifodaladi.

Shu masalada Navoiyni, uning ayollar haqida aytgan fikrlarini yaxshi va to‘g‘ri tushunish hamda baholash uchun sho’irning yashagan va ijod etgan davriga murojaat etamiz.

Navoiy o‘z davridagi xotin-qizlarning qismatini, ruhiy azoblarini g‘azallaridagi yor, mashuqa, ona, asarlaridagi esa Shirin, Layli, va Dilorom kabi obrazlar vositasi bilan tasvirlab berdi. U o‘z “Xamsa”sida qator xotin-qizlarning o‘lmas obrazlari gallereyasini yaratib, hayotiy va romantik orzularini bayon qildi.

Uning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ona obrazi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

*Kerak har ne ollimg ‘a yozdi qazo,
Sanga ham ayon bo ‘lsa mendek rizo.
Ko ‘ngul mendin uzmak ishin chog ‘lasang,
Chu uzdung, ani Tengriga bog ‘lasang.*

Navoiy talqinidagi Iskandar-avliyo va nabiy. Uning barcha harakatlari, tuyg‘ulari, ma’naviy-ruhiy olami, dunyoqarashi Qur’oni karimning “Kahf” surasida tasvirlangan Zulqarnayn bilan har jihatdan uyg‘un. Iskandarning onasi oldidagi, alaloqibat Alloh taollo huzuridagi nadomati-anglangan va nafsdan poklanish yo‘lidagi nadomat. Zero, oriflar men pokman, gunohsizman, demaydi. Osiyman, badkirdorman, gunohlardan yuzi qaroman, deydi. Nafsi malomat qilish orqali qalbini poklaydi, Haq rizosiga erishadi.

Dostonda Iskandarning onasi komil inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Uni hazrat Navoiy Bonuyi iffatpanoh deya ta’riflaydi. O‘g‘lining ta’ziyasiga kelgan yetti hakim - Aflatun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Xurmus, Farfunyus va Arastu bilan muloqoti uning siyratida sabr, rizo kabi kamolot maqomlari mujassam ekanini ko‘rsatadi.¹

Anglaymizki, nafaqat farzand hattoki ona ham farzandi oldidagi burchini bekamu ko‘st bajarishi shart ekanligi va bu vazifani bajarish uchun ayollar dunyoviy va diniy ilmlardan boxabar bo‘lishligi, shu bilan birga aql-zakovvatda ustun turishi qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. Oqil va dono, adolatli hukmdor farzandlarni yetishib chiqishida oilada ayolning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek adabiyotiga nazar tashlasak, o‘z asarida ayollar obrazini yaratishdek muhim ishga hech kimning Alisher Navoiydek ahamiyat bermaganligini ko‘ramiz. Uning lirikasining qaysi janrini olmaylik, ayol obrazi to‘la to‘kis ifodalangan. Oilada otaning maqomi qanchalik muhim bo‘lsa, onaning ham maqomi qolishmasligini ayni o‘rinlarda ta’kidlab o‘tgan.

¹Nurboy Jabborov “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiya, Toshkent. “Adabiyot”. 2021. 163-bet

“Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarinlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va balog‘atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi:

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Hazrat Navoiy ayol tabiatining o‘ziga xosligi, u yaratganning mo‘jizasi ekanligini o‘z asarlarida qayta-qayta ta’kidlab o‘tgan. Ayol bu – ona. U barcha hayot qiyinchiliklarini matonat bilan yengishga qodir. U bir shoir aytganidek balo kelsa turib beradi. Oilasini har qanday yomonliklardan himoya qilishga, asrashga tayyor. U oilada baxtiyor bo‘lsa, oila a’zolari ham baxtiyor bo‘ladi. Uning jamiyatda o‘z o‘rni bo‘lsa, jamiyat ham gullab-yashnaydi, taraqqiy etadi. Zero, ayollari qadrlangan yurt barqarordir. Shuning uchun ham Navoiy lirikasida ayol obrazini eng yuksak pog‘onoda ko‘rgan, qadrlagan, ta’riflagan, bot-bot uning buyuk xilqat ekanligini o‘z misralarida mohirona ifodalagan. Navoiyning buyukligi ham shunda. Buni ushbu misrada isbotini ko‘ramiz:

*Onalarning oyog‘i ostidadur,
Ravzayi jannatu jinon bog‘i,*

*Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l anoning oyog‘i tufrog‘i.*

Shuni tushunish mumkinki, Navoiy onalar oyog‘i ostida jannat bor. Agar sen jannatni istasang, onalr ostidagi tufrog‘i bo‘l. ya’ni onangni ziyorat qil, uning oyog‘i ostida jannat deb ta’kidlayaptilar. Chunki muqaddas dinimizda onalarni rozi qilish farzandlik burchining eng oliv namunasi ekanligini keltirib o‘tayapti va bu misra orqali “Jannat onalarning oyog‘i ostidadir” degan hadisi sharifni na’nosini ilg‘aymiz. Bu kabi misralar inson kamoloti uchun xizmat qiladi.

Navoiy asrlarida ayol obrazlaridagi ta’rifu tavsiflarning haqiqati shundaki, u o‘z misralarini hayotiy haqiqatlar bilan boyitgan. Ayni o‘rinli tarzda ifodalab bergen. Shunday ekan Alisher Navoiy asarlari mohiyatini yosh avlodlar ongiga qayta-qayda singdirish zarur. Navoiy asarlari qanchalik chuqur o‘rgatilsa, yosh avlod shuncha kamolotga yetadi. Undan eliga nafi tegadigan yetuk shaxs yetishib chiqishiga ishonamiz.

Foydalilanlgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. “Vafo qilsang”. Toshkent, 2014.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, Yigirma jildlik. Toshkent, 1993.
3. Alisher Navoiy. Asarlar, 15 jildlik. Toshkent, 1967.
4. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Alisher Navoiy ijodidan namunalar. “Quyoshlig‘ istasang, kasbi kamol et...”. Toshkent, Sahhof, 2021.
6. Nurboy Jabborov. “Maoniy ahlining sohibqironi”. Toshkent, Adabiyot, 2021.
7. Olimjon Davlatov. “Ma’nolar xazinasi”. Toshkent, 2021.